

“ТАСДИҚЛАНГАН”

**«Yangi Angren IES» АЖ
кузатув кенгашининг**

**2025 йил “31”июлдаги
1/2025-сонли баённомага**

-илова

**“YANGI ANGREN IES” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA SIYOSATI**

**ПОЛИТИКА ПО ПРОТИВОДЕЙСТВИЮ КОРРУПЦИИ В
АКЦИОНЕРНОМ ОБЩЕСТВЕ
“YANGI ANGREN IES”**

1 Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur Siyosat “Yangi Angren IES” Aksiyadorlik Jamiyatida (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat deb yuritiladi) halollik siyosatini ta’minlash, ya’ni xodimlar va umuman jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog‘ida Jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka doir munosabatini ifodalaydi.

1.2 Mazkur Siyosat O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdagi 62-son “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or jahon tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi – talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.3 “Yangi Angren IES” Aksiyadorlik Jamiyatda, Mazkur Siyosatni o‘z faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib shakllantirgan, bunda o‘ziga xos va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlaydi va mavjud resurslar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi.

1.4 Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

- Jamiyat xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etish;

- Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va barham berish;

- Jamiyatning barcha faoliyat sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Aholining Jamiyat faoliyati xususiyatlari yuzasidan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- Jamiyat xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;

- Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlarini, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi tamoyilini ta'minlash;

- Jamiyatda mavjud korrupsiyaga barham berish.

1.5 Mazkur Siyosat talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar Jamiyatning barcha xodimlari uchun birdek amal qiladi.

1.6 Jamiyatga ishga kirayotgan har qanday shaxs mazkur Siyosat bilan imzo chekkan holda tanishtirilishi va uning qoidalariga rioya qilishi lozim.

1.7 Mazkur Siyosatning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

- **aloqador shaxslar** - Jamiyat xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

- **ish faoliyati yuzasidan mehmondo'stlik belgilari** - uchinchi shaxslarning hamkorlik o'rnatish va yoki uni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan, Jamiyat xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan, ular manfaatlari yo'lidagi xarajatlarni, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog'liq xarajatlari, transport xarajatlari, ko'ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va h.k.;

- **kontragent** - Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

- **korruptsiya** - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

- **korruptsiyaviy xavf-xatar** - Jamiyat xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan yoki uning manfaatlari yo'lida korruptsiyaviy xatti-harakatlarni amalga oshirish xavfi;

- **korruptsiyaviy xatti-harakatlar** - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

- **korruptsiyaviy huquqbuzarlik** - sodir etilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo'yilgan korruptsiya alomatlariga ega xatti-harakat;

- **korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi** - Jamiyatda korruptsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma (Jamiyat komplayens xizmati);

- **korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi** - korruptsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va "Yangi Angren IES" AJning korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

- **kronizm** (favoritizmning do'stona aloqalarga asoslangan ko'rinishi) – do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat (lavozim mavqeyidan) va obro'sidan foydalanish;

- **mansabdor shaxs** - doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xalqaro tashkilotda yoxud xorijiy davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

- **manfaatlar to'qnashuvi** - Jamiyat xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

- **mahalliychilik** - mahalliy manfaatlarnigina ko'zlab ish tutish. Bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (asilzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e'tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqeyi sababli, uning lavozimga qo'yiladigan malaka

talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

- **nepotizm** (tanish-bilishchilik, qarindosh-urugʻchilik, favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan koʻrinishi) - oʻzining yaqin qarindoshlari yoki doʻstlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) taʼsir oʻtkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) doʻstlariga asossiz mukofotlar taqdim etish. Jamiyat manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va doʻstlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash;

- **rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun toʻlovlar** - belgilangan tartib-tamoillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bogʻliq standart tartiblar amalga oshirilishini taʼminlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ meʼyorlar hamda qoidalarda koʻzda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablagʻlari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

- **urugʻ-aymoqchilik** - Jamiyat xodimining avlod-ajdodlari bir boʻlgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

- **favoritizm** - Jamiyat xodimi boshqa shaxs va yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Jamiyat tizimida kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini koʻtarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, taʼtil berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvallarini koʻrib chiqishda ketma-ketlikni yoʻlga qoʻyish bilan bogʻliq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik;

- **xayriya** (xayriya yordami) - yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar) ning Jamiyat uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablagʻlari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun maʼlum ishlarni bajarish, xizmatlar koʻrsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qoʻllab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon boʻladigan ixtiyoriy begʻaraz yordami;

- **xalqaro tashkilot** — davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat'iy nazar tashkil etilgan har qanday xalqaro tashkilot, jumladan, iqtisodiy integratsiya bo'yicha mintaqaviy tashkilotlar;

- **xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

- **homiylilik** (homiylilik yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan “Yangi Angren IES” AJga ular uchun tegishli ishlarni bajarishi, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlarida boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish, mol-mulk, jumladan pul mablag'larini taqdim etish bilan ifodalanadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida Jamiyatda homiy oldida o'zaro majburiyatlar yuzaga kelishi;

- **shafelik** — Jamiyat xodimining lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni qo'llab-quvvatlashi;

- **yaqin qarindoshlar** – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan, asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug'ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari.

2 Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tamoyillari

2.1 Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi tamoyillar asosida faoliyat yuritadi:

- **qonuniylilik** – Jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribasi, shuningdek Jamiyat ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

- **korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik)** – Jamiyat va tarkibiy tuzilmalari o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz (toqatsiz) munosabatda bo'ladi.

Jamiyat va tarkibiy tuzilmalarining xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat'iy qat'iy taqiqlanadi;

- **ochiqlik va shaffoflik** – Jamiyat xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni “Yangi Angren IES” AJ tizimida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda);

- **korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo'lishi, tizimlilik va yaxlitligi** – korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy xatti-harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga muvofiq bo'lishi va Jamiyatning barcha funksiyalari va yo'nalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

- **korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarliligi** – korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Jamiyat xodimlari o'zining mavqeyi va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

- **ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish** – Jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishda ilm-fan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

- **to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish** – Jamiyat har bir xodimi korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni qabul qilish

uchun “Yangi Angren IES” AJ Bosh Direktori hamda Jamiyat rayosatiga hech qanday to‘siqsiz murojaat qilishi mumkin;

- **fuqarolik jamiyati vakillari bilan o‘zaro hamkorlik** – Jamiyat o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdagi faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etadi;

- **monitoring, tahlil va baholash** — Jamiyat davriy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati monitoringi va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek uning samaradorlik va natijadorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi;

- **korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish** – korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini muntazam ravishda oshirish choralari ko‘riladi.

3 Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari

I Manfaatlarni to‘qnashuvini boshqarish

3.1 Jamiyat xodimlari o‘z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishi, o‘z mansab va xizmat mavqeyidan va Jamiyat tasarrufidagi mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanmasligi va manfaatlarni to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanishi lozim.

3.2 Jamiyat xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko‘tarilayotganda va rotatsiya qilinayotganda har yili yoki tegishli vaziyatlar shart-sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlarni to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiq qilish lozim.

3.2 Jamiyat xodimlari tomonidan manfaatlarni to‘qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni ochiq qilish jarayoni “Yangi Angren IES” AJda manfaatlarni to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risida ichki idoraviy hujjatda belgilab qo‘yilgan.

3.4 Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari Jamiyat xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqasi ro‘y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozim.

II Ish yuzasidan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish

3.5 Jamiyat xodimlariga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg‘alar, mehmondo‘stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qog‘ozlar, kriptovalyuta, boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko‘rinishidagi rag‘bat vositalarini olish taqiqlanadi.

Bunda, konferensiyalar, seminarlar va turli shu kabi uchrashuvlarda taqdim etiladigan umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan oshmaydigan buyumlar bundan istisno hisoblanadi.

3.6 Jamiyatda ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o‘rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan va xodim shaxsi bilan bog‘liq deb e’tirof etilgan sovg‘alarni berishda quyidagilarga rioya qilinadi:

- sovg‘a oluvchi uchun manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg‘a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim;

- sovg‘a ochiq-oydin beriladi, sovg‘a berilayotgani yashirilmaydi;

- sovg‘ani faqat umume’tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k.) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi;

- sovg‘alar Jamiyatning kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim;

- sovg‘ani berish chog‘ida sovg‘a berish uchun sabab bo‘lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi;

- sovg‘aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig‘imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim;

Jamiyatning ma'lum bir xodimi ikkinchi xodimga sovg'a olish uchun sarflaydigan pul miqdori har bir holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.

3.7 Shubha (gumon)lardan holi bo'lish uchun har qanday bayramlar (jumladan, tug'ilgan kun, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k.) munosabati bilan mazkur Siyosatning 3.5 va 3.6-bandlarida keltirib o'tilmagan boshqa davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, kontragentlar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mazkur Siyosatning 3.5-bandida sanab o'tilgan sovg'alar va moddiy boyliklar olish taqiqlanadi.

3.8 Jamiyat nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg'alar berish rahbar buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi.

3.9 Sovg'a berish, uni qabul qilishning qonuniyligida shubha tug'ilgan taqdirda Jamiyat xodimi Jamiyatning komplayens xizmati mas'ul xodimiga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

III Jamiyat va tarkibiy tuzilmalar xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi

3.10 Jamiyat xodimlarining xalqaro va boshqa tashkilotlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

- tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda "Yangi Angren IES" AJ boshqa ichki meyoriy hujjatlariga mos kelsa;

- tadbir Jamiyat yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa;

- tadbir Jamiyat xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o'tkazayotgan loyiha-tadqiqot tashkilotiga murojaat

qilishni tavsiya qilish) ko‘zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo‘lmasligi lozim;

- bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma’lumotlar oshkor qilingan taqdirda Jamiyat va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqeyi uchun xavf-xatar tug‘dirmasligi lozim;

- tadbir umume’tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko‘ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim;

- tadbir mohiyati va qiymatiga ko‘ra o‘rinli bo‘lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g‘ayriodatiy bo‘lmasligi va tez-tez takrorlanib turmasligi lozim.

3.11 Agar ishbilarmonchilik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi Jamiyat bo‘lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu Siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

IV Xodim bilan bog‘liq jarayonni tartibga solish (lavozimini oshirish, moddiy rag‘batlantirish)

3.12 Jamiyat xodimlarini tanlash, attestatsiyadan o‘tkazish va ularning faoliyatini baholash, jumladan mukofot, ustamalar va rag‘batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va xolis hisoblanib, mazkur Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi lozim.

3.13 Jamiyatda nomzodlarni tanlash va tayinlash jarayoni nomzodlarni “Yangi Angren IES” AJ vakant lavozimlariga ishga qabul qilish Tartibi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibiga muvofiq, kompleks ravishda tekshirish bilan birga amalga oshiriladi.

3.14 Jamiyatda xodimlarga oid masalalarda qaror qabul qiluvchi xodimlarning lavozimini oshirganda, lavozimga tayinlanganda, kadrlar zaxirasiga qo‘shganda va h.k.larda nomzod (xodim)larga har qanday asossiz imtiyozlar taqdim etilishi taqiqlanadi (vakant).

3.15 Bo‘sh lavozimlarga saralab olish egallanayotgan lavozimga qo‘yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida yoki boshqa usul yordamida

amalga oshirilishi lozim. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuqlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

3.16 Jamiyatda xodimlar faoliyatini samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilishi va xodimlar uning asosida rag'batlantirilishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlar xolis, shaffof va Jamiyat xodimlari tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lishi lozim.

V Tekshiruvlar o'tkazish va tarkibiy tuzilmalari faoliyatini o'rganish

3.17 Turli tekshiruvlar, o'rganishlar, monitoring o'tkazishda (keyingi o'rinlarda—tekshiruv obyektlari) Jamiyat xodimlari:

- manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi;
- tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti tekshiruvi, o'rganishi, monitoringini yakka o'zi amalga oshirmasligi;
- tekshiruv, o'rganish, monitoring obyektiga tashrif buyuruvchilar yoki ularning vakillari shaxsan tashrif buyurganda ular bilan yolg'iz qolmasligi;
- yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o'rganish o'tkazilishi, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qilish yoki boshqa davlat organlariga topshirish bilan qo'rqitmasligi;
- tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti xodimlariga tahdid qilmasligi;
- hujjatlarni so'rab olish va tekshiruv, o'rganish, monitoring predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi;
- tekshiruv, o'rganish, monitoring davomida aniqlangan har bir qoidabuzarlikning qonuniy va professional baholanishini ta'minlashi;
- qoidabuzarliklarning video yoki fotoqaydini amalga oshirishi (o'rni kelganda) Jamiyat tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma'lumotlarni kiritish;
- agar tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti vakillari Jamiyat xodimiga aniqlangan qoidabuzarlikni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar yoki xizmatlar taqdim etayotgan bo'lsa, bu haqida tekshiruv bo'yicha

ishchi guruh rahbariga va Jamiyatning komplayens xizmatiga zudlik bilan xabar berishi;

- tekshiruv, o'rganish, monitoring obyekti vakillariga Jamiyat xodimlari xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart.

3.18 Jamiyat Boshqaruvi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar, o'rganishlar va monitoring natijalari yuzasidan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.

VI Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash

3.19 Jamiyat mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga zid har qanday to'lovlarni yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalb qilmaydi.

3.20 Kontragentlar bilan munosabatlarda Jamiyat qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

3.21 Jamiyatda obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinayotgan tovar va xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3.22 Kontragentlar bilan o'zaro hamkorlikda Jamiyat:

- kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchliligi, jumladan u o'tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilingan yoki qilinmaganligi, Jamiyat xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi;

- potensial kontragent, jumladan xarid tartib-taomillari g'olibini u bilan shartnoma matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo'shish orqali o'zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.

3.23 Vakolatli davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishda (masalan, litsenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, obyektlar yuzasidan kelishuvlar va h.k.) Jamiyat hujjatlarni ko‘rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta’minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo‘shimcha ma’lumotlarni talab qiladi.

VII Xayriya va homiylik faoliyatining shaffof va samarali jarayonini ta’minlash

3.24 Jamiyat qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko‘rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash, shuningdek xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni Jamiyatning Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida ochiqlash bo‘yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

3.25 Jamiyat tomonidan qabul qilingan xayriya va homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo‘lmasligi va Jamiyatning alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki homiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

3.26 Jamiyat tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- xayriya qiluvchi yoki homiy bilan albatta shartnoma tuzish va unda xayriya yoki homiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul, xayriya qiluvchi yoki homiydan kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to‘g‘risida hisob berish usuli belgilab qo‘yilishi lozim;

- bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;

- Jamiyatning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.

VIII Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

3.27 Ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizasini o'tkazishda Jamiyatning yuridik xizmati korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash maqsadida korrupsiyaga qarshi ekspertizani o'tkazadi.

IX Jamiyat faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish

3.28 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida Jamiyat xodimlari o'z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradi (agar imkoniyati mavjud bo'lsa).

3.29 Davlat xaridlari doirasida tender va tanlov savdolarini o'tkazishda Jamiyat xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanadi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan o'zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimda boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo'llagan holda amalga oshiradi.

X Jamiyatdagi faoliyatni videoqayd qilish va uning translyatsiyasi

3.30 Jamiyat binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o'rnatilib, ulardagi yozuvlar Jamiyatning ma'sul xodimlari tomonidan ko'rib boriladi.

3.31 Jamiyatning Internet tarmog'idagi rasmiy saytlarida korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyasi joylashtiriladi (xususan xodimlar bilan suhbat o'tkazish, ularni testdan o'tkazish, komissiyalar yig'ilishlari va h.k.).

4 Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari

I Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim ichki hujjatlar mavjudligi

4.1 Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini:

- mazkur Siyosat;

- Jamiyat xodimlarining odob-ahloq Qoidalari;
- Jamiyatda xodimlarning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

4.2 Jamiyat rahbariyati xodimlarga oliy rahbarlik namunasini ko'rsatishi lozim.

4.3 Jamiyat rahbarlari va ularning o'rinbosarlari o'ziga bo'ysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo'lishi va shu orqali ularda korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

4.4 Jamiyat rahbarlari va ularning o'rinbosarlari Jamiyat faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo'nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar va tartib-tamoillarni joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish va amalga oshirishga nisbatan yetakchilikni namoyish qiladi.

II Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash

4.5 Jamiyat o'z faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni korxona funksiyalarining xususiyati, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek "Yangi Angren IES" AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalga oshiradi.

4.6 Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda bir martadan kam bo'lmagan muddat oralig'ida o'tkaziladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari Jamiyat rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari va tartib-taomillari Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish dastur va yo'l xaritalarida aks ettiriladi.

III Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma'sul

4.7 Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun alohida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi — Komplayens xizmati tashkil etilgan.

4.8 Jamiyatda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi Komplayens xizmati o'z faoliyatini Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshiradi va bevosita Jamiyatning Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi.

4.9 Jamiyat rahbari Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasini korrupsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan ta'minlaydi.

4.10 Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash bo'limi Jamiyatda xodimlarning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida ko'zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma'lumotlarning tizimli va o'z vaqtida yig'ilishi, tahlil qilinishi va dolzarblashtirilishi uchun javob beradi.

4.11 Jamiyatda alohida Odob-ahloq komissiyasi faoliyat yuritadi.

4.12 Jamiyatdagi Odob-ahloq komissiyasi xodimlarning odob-ahloq qoidalar bilan belgilangan xulq-atvor meyorlariga rioya qilish masalalarini ko'rib chiqadi, shuningdek korxonada manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizomda belgilangan tartibda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.

IV Jamiyatning korrupsiyaga qarshi Siyosati to'g'risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta'minlash

4.13 Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o'zlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlarida joylashtiradi.

4.14 Jamiyat xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar, talablar to'g'risida xabar beradi va tushuntiradi:

- Jamiyat rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali korxonada xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;

- Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o'qitilishi hamda sinovdan o'tkazilishini ta'minlash;

- yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatta tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarni tashkil etish;

- Jamiyatdagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o'qitishning qo'shimcha dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'quv kurslari/treninglarga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Jamiyatning xodimlar bilan ishlash bo'limida saqlanadi;

- mavzuga doir audio va videoroliklar hamda Jamiyat xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kampaniyalar tashkil qilish;

- mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari va tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq savollar tug'ilganda, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi — "Komplayens xizmati" tomonidan Jamiyat xodimlariga maslahatlar berish;

- tasdiqlangan reja asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi — "Komplayens xizmati" tomonidan Jamiyatda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni faol tarzda targ'ib qilish;

- Jamiyat xodimlari bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish. Jamiyat mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab ularning yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritadi;

- Jamiyat kontragentlari, xayriya qiluvchilar, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish. Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Jamiyatning yangi kontragentlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar Jamiyatning barcha shartnomalariga kiritiladi (elektron do'kon, elektron auksion orqali xarid natijalari bo'yicha davlat tabiiy monopoliyalari (pochta, elektr energiya ta'minoti, gaz ta'minoti, suv ta'minoti, temir yo'llari, havo yo'lari va h.k.) bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno). Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida yoki tashabbusga ko'ra kiritiladi.

V Monitoring, nazorat va hisobdorlik

4.15 Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma'sul Jamiyatda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yetarliligi va mutanosibligi baholashni amalga oshiradi. O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishga doir tegishli chora-tadbirlar qabul qilinadi.

4.16 Monitoring va nazorat Jamiyatdada korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyotiga va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.17 Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi lozim:

- Jamiyat faoliyati funksiyalari va o'ziga xos jihatlari, uning tashkiliy-funksional tuzilmasi hamda boshqa tashqi va ichki omillaridagi o'zgarishlarning

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va unga tuzatishlar kiritish zaruriyati, jumladan uning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligini ta'minlashga ta'siri tahlili;

- O'zbekiston Respublikasining faoliyatida qo'llaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va hokimiyat organlari tavsiyalarining monitoringi;

- xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizmini yaratish va qo'llab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalarining monitoringi;

- ommaviy axborot vositalarining Jamiyat yoki xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek Jamiyat kontragentlari to'g'risida xuddi shunday ma'lumotlar mavjudligi yuzasidan monitoring;

- samarasiz nazoratlar va tartib-tamoillarni aniqlash uchun ularni takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishi tizimining ishonchliligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida tanlov asosida Jamiyatning ichki jarayonlari va funtsiyalarini monitoring qilish;

- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishi dasturi yoki yo'l xaritasi bandlari bajarilishining to'liqligi va samaradorligini monitoring qilish;

- Jamiyat xodimlari tomonidan tashkilotda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashishi talablari va joriy etilgan tartib-tamoillarga rioya qilinishini tekshirish;

- Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari va talablari to'g'risida xabardorligini tekshirish.

4.18 Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-hatarlar mavjud emasligi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ichki auditini o'tkazish, jumladan Jamiyatda belgilangan talablar va tartib-tamoillarga rioya etilishini nazorat qilish orqali tekshiriladi.

4.19 Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish tadbirlari yakunlari va natijalari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati

haqidagi hisobotlarida aks ettiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi “Yangi Angren IES” AJda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizomda mustahkamlab qo‘yiladi.

VI Javobgarlik

4.20 Mazkur Siyosatga mos kelish va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishi talablari va tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning o‘z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar mazkur Siyosat va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlarida belgilab qo‘yilgan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.

4.21 Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyiliga amal qilgan holda Jamiyatning barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat’iyan man etiladi, ya’ni:

- o‘z mansab va xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek xizmat mavqei va vakolatlarini suiste’mol qilish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foyda talab qilish, so‘rab olish yoki so‘rash, olishga rozilik berish yoki olish, shuningdek xodim tomonidan o‘z lavozim mavqeidan Jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda, jumladan o‘zi va uchinchi shaxslar uchun foyda olish maqsadida foydalanish;

- mansabdor shaxs yoki boshqa har qanday shaxsga uning harakatlariga ta’sir o‘tkazish (harakatsizligini ta’minlash) va/yoki shaxs, jumladan Jamiyat manfaatlari yo‘lida noqonuniy afzalliklarni qo‘lga kiritish maqsadida lavozim majburiyatlarini noqonuniy tarzda bajarishga undash, noqonuniy foyda (pora)ni taklif qilish, va’da berish, bunga ijozat berish, taqdim etish;

- rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish, olish yoki amalga oshirish;

- poraxo‘rlik yoki tijoriy pora olishda vositachilik qilish, jumladan pora oluvchiga noqonuniy foydani taqdim etish yoki pora oluvchi yoki beruvchiga ular o‘rtasida noqonuniy foydani olish va berish bo‘yicha kelishuvga erishishda yordam berish;

- Jamiyat xodimlarining korrupsiya belgilari mavjud bo‘lgan yoki uni sodir etish, jumladan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi boshqa harakatlari yoki harakatsizligi.

4.22 Xodimlar o‘z rahbari va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komplayens xizmati xodimiga ularni korrupsiyaviy harakatlarni sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog‘liq, shuningdek ularga ma‘lum bo‘lgan, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlarga oid barcha holatlar to‘g‘risida xabar berishi lozim.

4.23 Korrupsiyaga nisbatan murossasizlik (toqatsizlik) tamoyilini hisobga olgan holda Jamiyatda xodimlar tomonidan korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo‘yicha «Yangi Angren IES» AJ xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti” va boshqa ichki hujjatlarda ko‘zda tutilgan tartibda hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi.

4.24 Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi kurashishi bo‘yicha qonunchilik talablari va/yoki Jamiyatning boshqa ichki hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan korrupsiyaga qarshi kurashishi talablari va tartib-taomillarini buzgan Jamiyat xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlari doirasida va ularda ko‘zda tutilgan asoslar bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

4.25 Korrupsiyaviy xatti-harakatlar aniqlangan taqdirda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komplayens xizmati tomonidan ularning yuzaga kelish sabablari va imkoniyatlarini tahlil qilinadi va doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiriladi.

4.26 Ichki tekshiruvlar natijalari doimiy ravishda rahbarga, Jamiyat hay'ati va Jamiyatning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga taqdim etiladi.

4.27 Jamiyat korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlash uchun huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

5 Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar

5.1 Jamiyat xodimlarining harakatlari qonuniyligini yoki odob-ahloq qoidalariga mosligi yuzasidan shubha, korrupsiyaviy harakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli gumonlar yuzaga kelgan taqdirda, ular haqida Jamiyatning umumfoydalanuvdagi aloqa kanallari orqali ochiq xabar berilishi mumkin.

5.2 Jamiyat o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlaydi (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

5.3 Jamiyat o'z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo'lishi mumkinligi haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish harakatlariga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

5.4 Jamiyatning aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar Jamiyat ma'sul shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, "Yangi Angren IES" AJ ga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti" va boshqa ichki hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va xolisona ko'rib chiqiladi.

5.5 Jamiyat xodimlari tomonidan bila turib yolg'on xabar yuborish mazkur Siyosat talablarini buzish va odob-ahloq qoidalariga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi, bu haqida xabar bergan shaxs esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

6 Qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirishlar kiritish tartibi

6.1 Mazkur Siyosat quyidagi hollarda qayta ko‘rib chiqilishi, unga tuzatishlar va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin:

- mavjud korrupsiyaga qarshi Siyosat va tartib-tamoyillarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiruvchi O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi o‘zgarganda;

- samarasiz korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va tartib-taomillari aniqlanganda, shunindek Jamiyat faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelganda;

- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi va yoki funksiyalarining o‘ziga xos jihatlari o‘zgarganda va h.k.